



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNINI

Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali mustaqil tadqiqotchisi
xisobot@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklari kredit portfelini baholashning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliyotdagi dolzarb muammolari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida kredit portfeli sifatining bank moliyaviy barqarorligi, likvidligi va daromadlilikiga ta'siri tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida kredit portfelini boshqarishda risklar, diversifikatsiya, muammoli kreditlar va kredit oluvchilarning moliyaviy holatini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit portfeli, kredit portfelini baholash, kredit risklari, muammoli kreditlar, diversifikatsiya, bank moliyaviy barqarorligi.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of assessing the credit portfolio of commercial banks, as well as the current challenges encountered in banking practice. The study analyzes the impact of credit portfolio quality on the financial stability, liquidity, and profitability of banks. Based on a review of the academic literature, particular attention is paid to issues related to credit portfolio management, credit risks, diversification, non-performing loans, and the assessment of borrowers' financial condition.

Keywords: commercial banks, credit portfolio, credit portfolio assessment, credit risk, non-performing loans, diversification, financial stability of banks.

Абстрактный: В данной статье исследуются теоретико-методологические основы оценки кредитного портфеля коммерческих банков, а также актуальные проблемы, возникающие в банковской практике. В ходе исследования проанализировано влияние качества кредитного портфеля на финансовую устойчивость, ликвидность и доходность банков. На основе анализа научной литературы особое внимание уделено вопросам управления кредитным портфелем, кредитным рискам, диверсификации, проблемным кредитам, а также оценке финансового состояния заемщиков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитный портфель, оценка кредитного портфеля, кредитные риски, проблемные кредиты, диверсификация, финансовая устойчивость банка.

I

Kirish (Introduction/Введение)

Hozirgi globalashuv va moliya bozorlaridagi beqarorlik sharoitida tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta'minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bank aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kredit portfelining sifat darajasi bank tizimining moliyaviy holati, likvidligi va daromadlilikiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tijorat banklari kredit portfellarini baholash va uning samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, avvalo, tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Chunki kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanib, bank daromadlarining asosiy manbasi aynan kredit operatsiyalari orqali shakllanadi. Kredit portfelida muammoli va qaytarilishi shubhali kreditlar ulushining ortishi bank risklarining kuchayishiga olib keladi.

Ikkinchidan, muddatida qaytarilmagan kreditlarning umumiy kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ining oshishi tijorat banklarining likvidlik darajasini keskin pasaytiradi. Bu esa bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatlarini cheklab, moliyaviy barqarorlikka tahdid soladi. Natijada, bank tizimida ishonchsizlik muhiti shakllanishi mumkin.

Uchinchidan, tijorat banklari kredit portfelini samarali tarzda baholash va boshqarish xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hamda aholining kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq va o'z vaqtida qondirish imkonini beradi. Kredit portfelini baholash orqali banklar risklarni minimallashtirish, kredit resurslarini oqilona taqsimlash va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari kredit portfellarini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, amaldagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va

tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Iqtisodiy adabiyotlarda kredit portfeliga bank tomonidan joylashtirilgan barcha kreditlar yig'indisi sifatida ta'rif beriladi. Jumladan, Rose va Hudgins kredit portfelini bank aktivlarining eng daromadli, biroq eng yuqori riskka ega qismi sifatida baholaydi va uni samarali boshqarish kredit risklarini diversifikatsiya qilish bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi [1].

Saunders va Cornett ishlarida kredit portfelini boshqarish jarayoni aktivlar va passivlarni muvofiqlashtirish, qarz oluvchilarni baholash, defolt ehtimolini aniqlash hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish bilan izohlanadi. Mualliflar kredit portfelining sifatini baholashda NPL (non-performing loans) ko'rsatkichi asosiy indikator ekanini ta'kidlaydilar [2].

Abalkin L.I., Panova G.S. hamda boshqa qator iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarining kredit portfeli kreditlarning sifat ko'rsatkichlari va tarkibiy xususiyatlariga asoslangan holda shakllantirilgan tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda kredit portfelining mazmun-mohiyatini ochib berishga nisbatan ijobiy qarash namoyon bo'ladi [3].

Mazkur ta'rifning afzal tomoni shundaki, unda kreditlarning sifatiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda ularni muayyan belgilar asosida guruhlash zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa kredit portfelini baholash va boshqarish jarayonida risklarni aniqlash hamda kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham tijorat banklari kredit portfeli masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Z. Abdullaeva bank kredit portfelini turli darajadagi kredit risklarini hisobga olgan holda, muayyan mezonlar asosida guruhlashtirilgan kreditlar bo'yicha bank talablarining umumiy majmuasi sifatida tavsiflaydi [4].

A. Azlarova va M. Abduraxmanova tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, bank kredit portfelini bankning kreditlash faoliyatini amalga oshirishda asosiy qaydovchi vazifasini bajaradi hamda u bank tomonidan ajratilgan barcha kredit resurslarining umumiy hajmini qamrab oladi [5]. Mualliflarning mazkur ta'rif kredit portfelini bank kredit operatsiyalarining yig'indisi sifatida talqin etib, uni bank faoliyatida muhim strategik aktiv sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

J. Sinkining xulosasiga ko'ra, tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish sifatini oshirishda kredit oluvchi mijozning pul oqimlarini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ta'kidlashicha, aynan pul oqimlarini tahlil qilish orqali kredit risklarini kamaytirish va kredit qaytarilishi barqarorligini ta'minlash mumkin. Mijozning pul oqimini baholash jarayoni qator dolzarb masalalarga aniqlik kiritish imkonini beradi. Xususan, korxonaning sof foydasi uzoq muddatli majburiyatlarining joriy qismini qoplash uchun yetarliligi, uning faoliyatini natijasida qancha miqdorda real pul tushumlari shakllanmoqda, operatsiyalar qay tarzda moliyalashtirilmoqda hamda kompaniyaning hozirgi moliyaviy holati rahbariyat qarorlari yoki tashqi iqtisodiy omillar ta'siri ostida qanday shakllanmoqda, degan savollarga javob olish mumkin bo'ladi [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, banklar diversifikatsiyani, asosan, miqyos (ko'lam) iqtisodiyotidan kelib chiqadigan afzalliklar, daromadlar o'zgaruvchanligini pasaytirish hamda moliyaviy sinergiya samaralariga erishish maqsadida amalga oshiradilar. Ayni paytda, qator tadqiqotlarda diversifikatsiya faoliyat ko'lamining ortiqcha kengayishi natijasida samaradorlikning pasayishi va agentlik muammolarining kuchayishiga olib kelib, qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu sababli, diversifikatsiyaning bank faoliyatiga sof ta'siri masalasi ochiq empirik muammo sifatida qolmoqda. Xususan, AQSh tijorat banklari misolida olib borilgan empirik tadqiqotlar diversifikatsiya darajasining oshishi bank rentabelligi va risk ko'rsatkichlariga ta'siri borasida bir-biriga zid natijalarni qayd etadi [7-8]. Mazkur qarama-qarshi yondashuvlar va nomutanosib empirik xulosalar diversifikatsiyaning bank moliyaviy barqarorligiga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan Basel II va Basel III standartlarida kredit portfelini risklarini baholash, kapital yetarliligi va stress-testlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu standartlarga muvofiq, banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish va riskka mos kapital zaxiralarni shakllantirishi lozim [9].

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit portfelini samarali boshqarish bank faoliyatining markaziy masalalaridan biri bo'lib, u risklarni kamaytirish, daromadlilikni oshirish hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari kredit portfelini baholash va uni takomillashtirish masalalarini o'rganishda umumiy ilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlar tahlili usuli orqali kredit portfelini boshqarish va baholashga oid mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari o'rganildi hamda umumlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida kredit portfelini baholashga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi, induksiya va deduksiya usullari orqali alohida faktlar asosida umumiy xulosalar shakllantirildi. Statistik tahlil usulidan foydalangan holda kredit portfelini ko'rsatkichlari, muammoli kreditlar ulushi va zaxiralari shakllantirish amaliyoti baholandi.

Tadqiqot natijalarini asoslash maqsadida mantiqiy tahlil va ekspert baholash usullari qo'llanilib, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kredit risklarini kamaytirish va bank moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

Tijorat banklari kredit portfellari baholashning asosiy yo'nalishlari sifatida, avvalo, kredit risklarining darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni kompleks baholash hamda risklarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, qarz oluvchining kreditga layoqatligini va moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, kredit risklarini oldindan bashoratlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit portfelini samarali boshqarishda muammoli kreditlarni erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq mexanizmlarni joriy etish alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish orqali ularning likvidligi va daromadlilikini ta'minlash, shuningdek, kredit oledan mijozlar bilan doimiy monitoring va o'zaro aloqani yo'lga qo'yish kredit portfelini sifatini oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelini baholash amaliyotida qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular orasida eng asosiylaridan biri kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past ekanligidir. Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, yirik tijorat banklarida kredit qo'yilmalarining sezilarli qismi muayyan tarmoqlarga mansub korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, kredit resurslarining ayrim mulk shaklidagi mijozlarda yuqori darajada jamlanishi bank uchun kredit risklarining ortishiga olib keladi. Xususan, davlat korxonalari mulk shaklining o'zgarishi yoki ularni xususiyashtirish jarayonlari bilan bog'liq holatlarda ushbu sub'ektlarga berilgan kreditlarning qaytarilishida jiddiy muammolar yuzaga kelishi ehtimoli ortib boradi.

Bundan tashqari, respublikaning ayrim tijorat banklarida kredit operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etishda muayyan kamchiliklar mavjudligi kuzatilmoqda. Kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobini amaldagi me'yoriy talablar asosida to'g'ri yuritish bankning kreditlash faoliyati samaradorligini oshirish, kredit portfelining haqqoniy holatini aks ettirish hamda risklarni o'z vaqtda aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada muammolar esa kredit portfelini baholash natijalarining ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda tijorat banklarida bank faoliyatini avtomatlashtirishga qaratilgan yangi dasturiy ta'minot asosida ish olib borilmoqda. Mazkur tizim integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan bank tizimi (IABS) bo'lib, u orqali barcha bank operatsiyalari yagona axborot maydonida amalga oshiriladi. IABS joriy etilishi natijasida filiallar va bo'limlarda bajarilayotgan operatsiyalarni bosh ofis darajasida real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati yaratilgan.

Respublikamiz tijorat banklarida ssuda hisobvaraqlarini ochish, kreditlarni ajratish, ularning qaytarilishini nazorat qilish hamda foizlarni hisoblash kabi vazifalar tegishli bo'linma xodimlari o'rtasida aniq taqsimlangan. Bu esa kredit operatsiyalarini amalga oshirishda funksional ajratish tamoyiliga rioya etilishini ta'minlaydi.

Bank buxgalteriya boshqarmasi bankning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha joriy va ehtimoliy majburiyatlarni baholash uchun zarur bo'lgan to'liq va ishonchli axborotga ega bo'lishi lozim. Kredit operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya provodkalarini va hisob-kitoblarni, odatda, kreditlash boshqarmasi bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiriladi. Biroq, buxgalteriya provodkalarini to'g'ridan-to'g'ri kreditlash boshqarmasida bajarishga faqat bankda yetarli darajada kompyuterlashtirish ta'minlangan, buxgalteriya hisobini bir vaqtning o'zida nazorat qilish va boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimi mavjud bo'lgan holatlardagina yo'l qo'yiladi.

Kreditlash boshqarmasi kreditlarni tasdiqlash, rasmiylashtirish va ular bo'yicha asosiy shartlarni belgilash uchun javobgar hisoblanadi. Kredit tasdiqlangandan so'ng, ushbu boshqarma kreditning turi, umumiy majburiyatlar hajmi, foiz stavkasi, to'lov shakli va boshqa zarur ma'lumotlarni buxgalteriya boshqarmasiga taqdim etishi shart. Buxgalteriya boshqarmasi mazkur ma'lumotlar asosida foizli daromadlarni hisoblaydi hamda hisoblangan foizlar bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Shakllantirilgan axborotlar bankning boshqa moliyaviy hisobotlari bilan birgalikda bank rahbariyatiga, zarurat tug'ilgan hollarda esa Markaziy bankka taqdim etiladi. Shu munosabat bilan kreditlash faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida davriy hisobotlarni tayyorlash va ularni tegishli boshqarmalarga o'z vaqtda yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hisobotlarda kreditlar qoplash muddatlari, foiz stavkalari, valyutalar turi, iqtisodiyot tarmoqlari kesimi, kreditlar ta'minlanganligi hamda geografik joylashuvi bo'yicha chuqur tahlil o'tkazilishi lozim.

Hozirgi vaqtda respublikamiz tijorat banklarida kreditlar aktivlar sifatiga ko'ra tasniflanadi va muqobil zararlari (rezervlar) shakllantiriladigan mezonlar amal qiladi. Markaziy bankning "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralari shakllantirish tartibi" bo'yicha qoidalarga ko'ra, kreditlar «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» kabi toifalarga ajratiladi. Inkassiya qilinayotgan kredit turi bo'yicha zararlarga mo'ljallangan maxsus zaxiralari ham shakllantiriladi, ya'ni kredit sifatining har bir toifasiga mos ravishda zararni qoplash uchun belgilangan zarur zaxiralari miqdori joriy qilinadi.

Muammoli aktivlar sifatida tasniflangan "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun maxsus zaxiralari yaratilishi majburiydir. O'zbekistonda standart kreditlar uchun ham zaxiralari shakllantirish amaliyoti joriy etilgan bo'lib, "standart" deb tasniflangan kreditlar portfeliga 1% bo'lgan zaxiralari miqdori qo'yilishi belgilangan. Bu tizim kredit sifatini jahon me'yorlari asosida tahlil qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilgan.

Demak zahira summasing asosiy qismi muammoli kreditlar buyicha tashkil etiladi.

Respublikamizning yirik tijorat banklarida muammoli ssudalarning jami kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'i o'sish tendensiyasiga ega ekanligi kredit portfeli sifatining pasayib borayotganligini ko'rsatadi. Xususan, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki misolida tahlil qilingan davr mobaynida muammoli kreditlar ulushining izchil ortib borishi kuzatilib, bu holat bank kredit portfelining sifat ko'rsatkichlarida salbiy o'zgarishlar mavjudligidan dalolat beradi.

Muammoli kreditlarni undirish kreditlash jarayonining yakuniy bosqichi hisoblanadi va ushbu bosqichda kredit summalarining to'liq qaytarilmasligi kreditlash amaliyoti samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, qarz oluvchi tomonidan kredit majburiyatlarini bajarish istiqbolini oldindan aniq baholash, ehtimoliy yo'qotishlar hajmini kamaytirishga qaratilgan muqobil harakatlar dasturini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreditlarni qaytarishdagi muammolarni erta bosqichda aniqlash va o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali muammoli kreditlarning muayyan qismini bank uchun moliyaviy zararga aylanishining oldini olish mumkin.

Bugungi kunda qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siri ostida shunday vaziyat shakllanishi mumkinki, ko'rilgan barcha profilaktik va tashkiliy chora-tadbirlarga qaramasdan, masala kreditni majburiy undirish bosqichiga kelib taqaladi. Kreditlarni berish shartlarining turlichaligi hamda muammoli ssudalarning vujudga kelish sabablari bir xil emasligi har bir muammoli kreditga nisbatan individual yondashuvni talab qiladi. Biroq, shunga qaramasdan, muammoli kreditlarni undirish bo'yicha yagona va tizimli yondashuvga asoslangan umumiy strategiyani ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Ayni paytda, kreditni undirish strategiyasini qarz oluvchining holatini oldindan chuqur tahlil qilmasdan belgilash mumkin emas. Shu bois, mijozning moliyaviy ahvolini har tomonlama baholash, uning faoliyati rivojlanishining kelgusidagi ehtimoliy ssenariyalarini prognoz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan garovning joriy bozor qiymatini, shuningdek, zarurat tug'ilganda sotilishi mumkin bo'lgan alohida aktivlarning real qiymatini aniqlash lozim.

Muammoli kreditlarni undirish strategiyasini ishlab chiqish uchun bank, avvalo, yetarli va ishonchli axborot bazasiga ega bo'lishi kerak. Bu esa mijozlarning joriy moliyaviy holatini qo'shimcha va mukammal tahlil qilinishi talab etadi. Bunday tahlilni amalga oshirish uchun bankning ichki inson resurslari, analitik salohiyati va tashkiliy imkoniyatlari yetarli darajada shakllangan bo'lishi zarur. Ayrim tijorat banklarida muammoli aktivlar bilan ishlashga ixtisoslashgan alohida bo'linmalar tashkil etilgan bo'lsa, boshqa banklar ushbu jarayonga xolis auditorlik yoki konsalting kompaniyalarini jalb etadilar.

Zarur ma'lumotlarni to'liq va ishonchli yig'ish maqsadida bank xodimlari yoki jalb etilgan mutaxassislarining mijoz bilan uzviy va doimiy aloqada bo'lishi muhim shart hisoblanadi. Bu esa muammoli kreditlarni samarali undirish hamda ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Kredit shartnomalarini tuzish jarayonida ularning huquqiy va moliyaviy oqibatlari tegishli hujjatlarda aniq va ravshan tarzda aks ettirilishi lozim. Bunday oqibatlar, odatda, bank tomonidan qarzodga nisbatan qarzni undirish to'g'risida talab qo'yish huquqini nazarda tutadi. Shu bilan birga, bank har bir aniq holatda mazkur huquqdan foydalanish maqsadga muvofiqligini atroflicha baholashi zarur.

Agar qarzni zudlik bilan undirish bank manfaatlariga mos kelmasa yoki qarzni qaytarish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin bo'lsa, kreditni qayta tarkiblash (restrukturizatsiya qilish) shartlarini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida mijozning bir vaqtning o'zida bir necha banklardan kredit olish huquqiga ega ekanligi inobatga olingan holda, bank o'z mijozining boshqa moliya institutlaridan olgan barcha kreditlari va ularning shartlari to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu mijozga nisbatan har bir kreditorning ustuvor talablari va huquqiy maqomi haqida ma'lumotlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli kreditlar bilan bog'liq vaziyatlarni hal etishda ekspert xulosalari va tavsiyalarini chuqur tahlil qilish asosida bank tomonidan maqbul harakat ssenariylari ishlab chiqilishi zarur. Bank muammoli kreditni undirish uchun ixtiyorida qolgan vaqt resurslarini aniq belgilab olishi hamda undirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar qarzni qaytarish ehtimoliga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga ishonch hosil qilishi lozim. Bu esa muammoli kreditlar bilan ishlashda samaradorlikni oshirish va ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

4. Yurtimizning yirik tijorat banklarida kreditlash shakllaridan to'laonli foydalanish bilan bog'liq muayyan muammolar mavjud. Olib borilgan tahlillar natijasiga ko'ra, respublikamizning yirik tijorat

banklarida kreditlash amaliyotida, asosan, alohida ssuda hisobvaraqlarini ochmasdan turib kredit ajratish shakli keng qo'llanilmoqda. Bunda kredit liniyalari, shuningdek, faktoring kabi zamonaviy kreditlash instrumentlaridan foydalanish darajasi nisbatan past ekanligi kuzatilmogda.

Ayniqsa, faktoring xizmatlarining cheklangan qo'llanilishi banklar tomonidan debitorlik qarzlarni moliyalashtirish imkoniyatlarining yetarlicha ishga solinmayotganligini anglatadi. Natijada, kredit portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari qisqarib, uning sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, kreditlash shakllarini kengaytirish va ulardan samarali foydalanish tijorat banklari kredit portfelining barqarorligi va sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa (Conclusion, Заключение)

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, bizning fikrimizcha, qator amaliy chora-tadbirlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, tijorat banklari kredit portfelining tarmoq xususiyatlari bo'yicha diversifikatsiya darajasini oshirish zarur. Buning uchun har bir tijorat bankida kreditlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlariga nisbatan aniq kreditlash limitlarini belgilash lozim. Mazkur limitlar kredit resurslarining asosiy qismi muayyan tarmoq doirasida jamlanib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bank boshqaruv organlari har bir kredit arizasini bevosita ko'rib chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu bois, kreditlash limitlarini belgilash banklarning kredit amaliyotida muhim boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Tijorat banklari limitlarni belgilash masalasiga daraja yondashalar-da, amaliyotda qo'llanilayotgan limitlarni umumiy mazmuniga ko'ra ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: tarmoq limitlari va bitta mijozni kreditlash limitlari.

Kredit portfeli sifatini yaxshilash maqsadida banklar mijozlarni kreditlashda faqat individual risklarni emas, balki umumiy risk kategoriyalarini ham hisobga olishlari lozim. Shu sababli, alohida mijozlar bo'yicha belgilanadigan kreditlash limitlari bilan bir qatorda, kredit riski darajasi o'xshash bo'lgan mijozlar guruhi uchun ham kreditlash limitlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday limitlar bankning muayyan tarmoqqa mansub korxonalariga ortiqcha bog'lanib qolishining oldini olishga qaratilgan.

Amaliyotdan ma'lumki, ayrim iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalarining rentabellik darajasi ma'lum vaqt davomida barqaror yuqori bo'lishi mumkin, boshqa tarmoqlarda esa ushbu ko'rsatkich nisbatan past darajada saqlanib qoladi. Shu bois, tarmoq limitlarini belgilash jarayonida tahlil qilinayotgan tarmoqning joriy iqtisodiy holati, uning rivojlanish istiqbollari, texnologik o'zgarishlarning barqarorlik darajasi, shuningdek, tarmoqdagi asosiy xarajat turlarining dinamikasi har tomonlama baholanishi lozim.

Ikkinchidan, Kreditlashning har bir shakli o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, ular mijozlar uchun bank kreditlarining jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, banklar mijozlarning faoliyat xususiyatlari va moliyaviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda turli kredit instrumentlarini taklif etishlari lozim.

Xususan, overdraft kreditlari ishlab chiqarish yoki mahsulotlarni sotish sikli qisqa bo'lgan korxonalar uchun mos keladi. Bunday mijozlar, odatda, joriy hisobvaraqlardagi vaqtinchalik va kutilmagan pul yetishmovchiligini qoplash maqsadida kredit resurslariga ehtiyoj sezadilar. Shu sababli, ular uchun uzoq muddatli kreditlardan foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Agar bank overdraft kreditlarini taklif etmasa, mazkur toifadagi mijozlar boshqa banklarning xizmatlaridan foydalanishga majbur bo'lishlari mumkin, bu esa bank uchun mijozlarni yo'qotish xavfini oshiradi.

Shuningdek, kreditlashning forfeyting shakli ham mol yetkazib beruvchilarning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda samarali moliyaviy instrument hisoblanadi. Forfeyting orqali korxonalar kelgusida tushishi kutilgan pul tushumlarini tezkor ravishda naqd mablag'larga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, kreditlash shakllarini diversifikatsiya qilish banklar uchun nafaqat kredit portfeli sifatini oshirish, balki mijozlar bazasini kengaytirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, tijorat banklarining yirik kreditlar berish imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlar orqali tartibga solinadi. Jumladan, bitta mijozga beriladigan ta'minlanmagan kreditlar hajmi bankning birinchi darajali kapitaliga nisbatan 5 foizdan oshmasligi, ta'minlangan kreditlar hajmi esa 15 foizdan yuqori bo'lmasligi belgilangan. Shuningdek, bank tomonidan berilgan barcha yirik kreditlar umumiy hajmi bankning reguliyativ kapitaliga nisbatan 8 barobardan oshib ketmasligi lozim.

Mazkur me'yorlardan ko'rinib turibdiki, bankning yirik kreditlar berish salohiyati bevosita uning kapital bazasiga, ayniqsa, birinchi

darajali kapital hajmiga bog'liq. Agar bank kapitali yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, u holda yirik mijozlarning katta hajmdagi kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkoniyati cheklanadi. Bu esa yirik va barqaror mijozlarning boshqa banklarga murojaat qilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayni paytda, bitta mijozga ajratiladigan kreditlar bo'yicha belgilangan me'yorning nisbatan past darajada o'rnatilishi kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur talablarning buzilishi esa bank faoliyatida kredit risklarining keskin ortishiga olib keladi. Shuningdek, bitta mijoz yoki o'zaro bog'liq mijozlar guruhiga to'g'ri keladigan riskning maksimal miqdori ham birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilanib, ta'minlanmagan ssudalar bo'yicha uning eng yuqori darajasi 0,05 etib belgilangan. Ushbu me'yorga rioya etilishi banklarni kredit risklaridan muayyan darajada himoya qilish imkonini beradi.

Ayniqsa, tashqi iqtisodiy omillar ta'siri kuchaygan hozirgi sharoitda mijozlar pul oqimlarining beqarorligi ta'minlanmagan kreditlarni katta

hajmda bitta mijozga yoki mijozlar guruhiga ajratish bank uchun jiddiy kredit risklarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, yirik kreditlar berish imkoniyatlarini oshirish bilan bir qatorda, kapital yetariligidini mustahkamlash va risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management & Financial Services (9th Editio). – 2013.
2. Saunders, A. and Cornett, M.M. (2019) Financial markets and institutions /. 7th International ed. New York, N.Y.: McGraw-Hill.
3. Арзикулов О. А. Значение малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане - 2020. - Нет. 4. – С. 157-160
4. Абдуллаева ШЗ. Банк рисклари ва кредитлаш. Т.: Молия, 2002. 304 б. Б – 166.
5. Azlarova A. A., Abduraxmanova M. M. Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari //Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – 2018. – Т. 6.
6. Синки Дж.. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и 5.в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. –М.:Альпина Паблишер. 2017.–1018с.
7. Stiroh K. J., Rumble A. The dark side of diversification: The case of US financial holding companies //Journal of banking & finance. – 2006. – Т. 30. – №. 8. – С. 2131-2161.
8. Shim J. Bank capital buffer and portfolio risk: The influence of business cycle and revenue diversification //Journal of banking & finance. – 2013. – Т. 37. – №. 3. – С. 761-772.
9. <https://www.bis.org/bcbs/basel3.htm>
10. Baratova Dinora Alisherovna. (2025). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 23–24. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/341